

Buxoro viloyati statistika boshqarmasi

2020- yil yanvar-sentabr

(dastlabki ma'lumot)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko'rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2020- yil yanvar-sentabr oylarida Buxoro viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2411,4 ming so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan **19,3% ga o'sdi**


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xodimlar soni, mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadi va o'rtacha oylik ish haqi.

	Xodimlar soni, kishi	Mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromad mlrd. so'm	O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm
Viloyat bo'yicha - jami	150813	3229,8	2411,4
<i>shu jumladan:</i>			
Sanoat	17421	443,4	2828,2
Qurilish	6589	153,4	2569,1
Savdo	2642	44,3	1862,4
Tashish va saqlash	13672	434,9	3534,1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	437	6,9	1760,8
Axborot va aloqa	1228	29,3	2648,6
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	3143	141,6	5005,3
Ta'lim	56226	966,9	1910,7
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	26194	527,1	2235,8
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	2807	46,4	1838,4
Boshqa faoliyat turlari	20454	436,7	2372,1

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o'rtacha oylik ish haqi ulushi jamiga nisbatan Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida (**2.1 m.k**), tashish va saqlashda (**146,6 %**), sanoatda (**117,3 %**), axborotlashtirish va aloqada (**109,8 %**), qurilishda (**106,5 %**), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (**92,7 %**), ta'limda (**79,2 %**), san'at ko'ngil ochish va dam olishda (**76,2 %**), savdoda (**77,2 %**) va boshqa yo'nalishlarda (**98,4 %**) hissasiga to'g'ri keldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da

(2020- yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



2020- yil yanvar-sentabr


(dastlabki ma'lumot)

Buxoro viloyati bo'yicha shahar va tumanlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'mda

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini Buxoro viloyati hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Qorovulbozor tumanida **3651,0** ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 151,4 %), Kogon shahrida **3157,9** ming so'mni (131,0 %), Buxoro shahrida **2516,9** ming so'mni (104,4 %), Kogon tumanida **2431,4** ming so'mni (100,8 %) tashkil etgan bo'lsa, aksincha Olot tumanida **1905,8** ming so'mni (79,0 %), Peshko' tumanida **1839,8** ming so'mni (76,3 %) va Vobkent tumanida **1735,2** ming so'mni (72,0 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da

(2020- yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



**Buxoro viloyati bo'yicha shahar va tumanlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'mda
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)**

	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	O'sish sur'ati, %
Buxoro viloyati	2021,8	2411,4	119,3
Buxoro sh.	2152,4	2516,9	116,9
Kogon sh.	2861,3	3157,9	110,4
<i>tumanlar:</i>			
Olot	1781,1	1905,8	107,0
Buxoro	1757,8	2076,6	118,1
Vobkent	1575,1	1735,2	110,2
G'ijduvon	1727,5	1930,3	111,7
Kogon	1784,7	2431,4	136,2
Qorako'l	1647,3	2339,3	142,0
Qorovulbozor	2783,6	3651,0	131,2
Peshko'	1578,0	1839,8	116,6
Romitan	1763,9	2362,4	133,9
Jondor	1638,0	1915,6	116,9
Shofirkon	1658,6	1982,0	119,5


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'mda

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	O'sish sur'ati, %
Viloyat bo'yicha - jami	2021,8	2411,4	119,3
<i>shu jumladan:</i>			
Sanoat	2859,8	2828,2	98,9
Qurilish	1755,9	2569,1	146,3
Savdo	1761,8	1862,4	105,7
Tashish va saqlash	2872,7	3534,1	123,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1411,9	1760,8	124,7
Axborot va aloqa	2276,8	2648,6	116,3
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	3962,3	5005,3	126,3
Ta'lim	1717,2	1910,7	111,3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1672,3	2235,8	133,7
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	1599,8	1838,4	114,9
Boshqa faoliyat turlari	1837,8	2372,1	129,1

Ma'lumot uchun: "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining "2020- yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, 2020- yilning 1- fevralidan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori **679 330** so'mni tashkil etadi. .



Viloyat statistika boshqarmasining
Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi
Nashr uchun mas'ul: Sh.Musaeva
(71) 230--83-16, 223-83-37